

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASHNI XORIJ
AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

Azimov Alisher Abdumajitovich

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi **Biznesni boshqarish**
(Master of Business Administration-MBA) Banking 23-02-guruh magistranti*

Annotatsiya: *Jahon amaliyotini kuzatadigan bo'lsak, rivojlangan va rivojlanib borayotgan ko'pgina davlatlarda iqtisodiyotning rivojlanishiga kichik biznes subyektlarini rivojlantirish orqali erishilgan. Buning asosiy sababi ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ichki va tashqi resurslardan oqilona foydalanib qondira olganligidir. Ushbu tezisdagi mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini kreditlashning jahon amaliyoti asosida takomillashtirish masalasi yoritib berilgan.*

Аннотация: *если проследить мировую практику, то во многих развитых и развивающихся странах развитие экономики достигается за счет развития субъектов малого предпринимательства. Основная причина этого в том, что они смогли удовлетворить свои потребности в финансовых ресурсах, рационально используя как внутренние, так и внешние ресурсы. В данной диссертации освещен вопрос совершенствования кредитования субъектов малого предпринимательства в нашей стране на основе мировой практики.*

Abstract: *if we follow the world practice, in many developed and developing countries, economic development is achieved through the development of small businesses. The main reason for this is that they were able to meet their financial resource needs by making rational use of both internal and external resources. This dissertation highlights the issue of improving lending to small businesses in our country based on international practice.*

Kirish

Mamlakatimizda kreditlash tartib-taomillari va moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish va tijorat banklarining resurs imkoniyatlarini oshirish hisobiga banklarimiz tomonidan kichik biznes sub'ektlariga ajratilayotgan milliy va

xorijiy kreditlar hajmi yildan yilga o'sib bormoqda. Ammo tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan kreditlar bo'yicha yuqoridagi muammolar to'siq bulib turibdi. Ushbu muammolarni hal qilish hozirgi kunda ko'pchilik banklarning kichik biznes bilan bog'lik muammolarini ancha oydinlashtirgan bo'lar edi.

Yuqorilardan kelib chiqib quyidagilarni bu kamchiliklarning yechimi sifatida ko'rib chiqamiz.

-Banklarning ta'minotlarni baxolashdagi mustaqilligini oshirish va nomoliyaviy institutlar tomonidan berilayotgan kafilliklarni kamaytirish yoki cheklash;

-Kichik biznesni kreditlashda xorijiy kreditlar hissasini oshirish, berilayotgan kreditlarda bank marjasi faqat 2-3% ni tashkil qilgani uchun ushbu mablag'lardan olingan daromadlarni soliqdan ozod qilish;

-Banklarning kreditlash jarayonidagi mustaqilliklarini oshirish: mijoz xujjatlarini ko'rib chiqish muddatlarini asoslangan hollarda uzaytirish, kreditga layoqatlilikni aniqlashning ob'ektivligini oshirish;

-Tijorat banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni, ayniqsa dehqon va fermer xo'jaliklarni, oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarni tadbirkorlarni xalqaro kreditlashda kredit miqdoridan cheklovlarni hamda kreditning foiz stavkasi kamaytirish;

-Kreditlashning overdraft, kontokorrent usullardan keng foydalanish, chunki bu kredit shakllari mijozni doimiy tarzda nazorat qilishda yordam beradi;

-Kichik biznes sohasiga oid har bir qabul qilingan Farmon, Qaror va Nizomlarni bevosita uyushma-tashkilotlar orqali kichik biznes sub'ektlariga tushuntirish.

Agar kichik biznes sohasiga kreditlar xorijiy valyuta ya'ni AQSH dollarida berilgan deb hisoblaylik, kichik biznes subyektlari ham devalvatsiya natijasida ko'tarilishi va bankning foiz stavkalarini qaytarishi juda og'irlik qilishi mumkin. Va natijada olingan kreditlar qaytmasligiga bu esa xorijiy hamkorlarimizning ishonchini oqlamasligizga olib kelishi mumkin. Avvalo kichik biznes subyektlariga eksport qilish yo'lini ochib berishimiz va imtiyozli xalqaro kredit liniyalari hisobidan kreditlar

berishimiz albatta mamlakat inflatsiya darajasiga ham iqtisodiy ko'rsatkichlarimizga ham ijobiy hissa qo'shadi deb ayta olishimiz mumkin. Umuman olganda, O'zbekistonda iqtisodiy sharoitni hisobga olgan holda kichik biznesni xalqaro kreditlashning maxsus mexanizmini yaratish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, byudjetdan tashqari fondlarning bu boradagi faoliyatini mustaqil bo'lishiga e'tibor qaratish va sohani kreditlashda nafaqat tijorat banklarini, balki kredit uyushmalarini ham mas'uliyatini oshirish kerak. Shu bilan birga yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bu soha bo'yicha kasbiy ta'limni rivojlantirishi lozim. Chunki hozirda eng ko'zga ko'ringan muammolardan biri aynan kadrlar masalasidir. O'ylaymizki, bu boradagi islohotlar kelajakda kichik korxonalarimizni bozorda o'z o'rinlarini topishga va olingan barcha kreditlarni o'z vaqtida qaytarishlariga yordam beradi.

Xulosa

Umuman olganda kichik biznes subyektlarini xorijiy kreditlar hisobidan kreditash amaliyotini takomillashtirish va rivojlantirish, avvalo aholining ishbilarmonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, ikkinchidan kam ta'minlangan, biroq iqtisodiy faol aholi qatlamini moliyaviy resusrlardan foydalana olishini ta'minlashga, uchunchidan kichik biznes subyektlariga xorijiy kredit liniyalari hisobidan imtiyozli kreditlar berish asosida ularning real daromadlilikini oshirishga va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga ijobiy hissa qo'shishga, to'rtinchidan, yuqoridagi faoliyatlarni amalga oshirgach o'z faoliyatini yanada kengaytirib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois bu sohaga imtiyozli xorijiy va mahalliy kreditlar ajratish jarayonini takimillashtirish va ular yuzasidan kelib chiqadigan turli muommolarni hal qilish iqtisodiyot oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki xalqaro kredit mamlakatlarni bir biriga yaqinlashtiruvchi va hamjihatlikda faoliyat olib borish imkoniyatini beruvchi asosiy me'zonlardan biridir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik biznes faoliyatini xalqaro kreditlash jarayonida tijorat banklariiz ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ana shu muommo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, yo'lga qo'yilsa, iqtisodiy potensialimiz yanada yuksalib, gullab- yashnashiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni 2012-yil 2-may .
5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y. 6. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi Qonuni. 2006-yil 15-sentabr.
7. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi to'g'risida” gi Nizom2013-yil 27-dekabr.
8. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldagi Qarori.
- 9.“Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2003- yil, 23- dekabr.
10. “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-apreldagi Qarori.
11. “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi PQ-2844 Qarori.